

3/2024,
may-
iyun
(№ 00071)



QURILISH MATERIALLARI BOZORINI TARTIBGA SOLISHDA DAVLAT BOSHQARUVINING O'RNINI

Uzakova Umida Ruzievna

Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti

E-mail: lassie2323@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0002-6173-5572>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss3/i8

Annotatsiya

Ilmiy maqolada qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solish va boshqarish zaruriyati ko'rib chiqilgan. Qurilish materiallari bozorini davlat tomonidan tartibga solishda: sohada bozor tamoyillarini joriy etish; ularni davlat tomonidan nazorat qilish va tartibga solishning zamonaviy shakllarini qo'llash; qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar manfaatlarini uyg'unlashtirish; qurilish materiallari bozorini nazorat qilishda hukumat aralashuvini qonuniy me'yorlarini belgilash; mahalliy ishlab chiqarishni xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha imkoniyatlarni oshirish; sifatli mahsulot ishlab chiqaruvchilarni qo'llab – quvvatlash bo'yicha aniq dasturlar ishlab chiqish bo'yicha taklif va tavsiflar berilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari, qurilish materiallari bozori, ishlab chiqarish, qurilish mahsuloti, tartibga solish, davlat boshqaruvi, mahalliy lashtirish, iqtisodiy samaradorlik, boshqaruv samaradorligi, tashkiliy mexanizm, iqtisodiy mexanizm, xarajat, narx, sanoat, rentabellik.

РОЛЬ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ В РЕГУЛИРОВАНИИ РЫНКА СТРОИТЕЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Узакова Умида Рузьевна

Базовый докторант Ташкентского государственного университета транспорта

Аннотация

В научной статье рассматривается необходимость государственного регулирования и управления рынком строительных материалов. В государственном регулировании рынка строительных материалов: внедрение рыночных принципов в отрасль; применение современных форм государственного контроля и регулирования их; гармонизация интересов производителей и потребителей строительных материалов; установление законодательных норм государственного вмешательства в надзор за рынком строительных материалов; наращивание потенциала по приведению отечественного производства в соответствие с международными стандартами; даны предложения и описания по разработке конкретных программ поддержки производителей качественной продукции.

Ключевые слова: строительные материалы, рынок строительных материалов, производство, строительная продукция, регулирование, государственное управление, локализация, экономическая эффективность, эффективность управления, организационный механизм, экономический механизм, стоимость, цена, отрасль, рентабельность.

THE ROLE OF PUBLIC ADMINISTRATION IN THE REGULATION OF THE BUILDING MATERIALS MARKET

Uzakova Umida Ruzievna

Tashkent State transport University base doctoral student

Abstract

The scientific article examines the need for state regulation and management of the building materials market. In the state regulation of the building materials market: the introduction of market principles in the industry; the application of modern forms of their control and regulation by the state; harmonization of interests of manufacturers and consumers of building materials; setting legal norms of government intervention in the control of the building materials market; increasing the capacity to bring domestic production up to international standards; proposals and descriptions have been made to develop specific programs to support quality product manufacturers.

Keywords: building materials, building materials market, production, construction product, regulation, public administration, neighborhood, economic efficiency, management efficiency, organizational mechanism, economic mechanism, cost, price, industry, profitability.

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni liberallashtirish siyosati qurilish materiallari bozorini shakllantirishning bozor tamoyillarini joriy etishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ularni davlat tomonidan nazorat qilish va tartibga solishning turli shakllari davlat tomonidan qo'llaniladi. Jamiyat va shaxsiy manfaatlarni uyg'unlashtirish, jamoa va shaxsiy manfaatlar o'rtasidagi sinergiyani rivojlantirish uchun qurilish materiallari bozorini nazorat qilishda hukumat aralashuvi zarur bo'ladi. Bu prognozlash, strategik rejalashtirish, byudjetni taqsimlash, moliyaviy islohotlar, iqtisodiy rejalashtirish aktiv va passiv mablag'larni o'z ichiga olgan zaruriy iqtisodiy choralarni qo'llashni nazarda tutadi. Keyingi yillarda O'zbekiston respublikasida qurilish ishlari ko'lami sezilarli darajada oshdi. Bularning barchasini real vaqt rejimida hamma joyda kuzatyapmiz: turar-joy majmualari va magistral yo'llar, sanoat gigantlari va ijtimoiy ob'ektlar – hamma erda ishlar qizg'in davom etmoqda, O'zbekistonni ko'z o'ngimizda yanada zamonaviy va rivojlangan davlatga aylantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF - 5577 – sonli farmonida qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish, investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, qurilish tarmog'i kadrlarini professional tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan. [1]

Qurilish materiallari sanoatini rivojlanishi, aholini turmush darajasini ta'minlovchi muhim jarayon bo'lib, mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy siyosat natijasini ham ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi «Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4335 qarorida qayd etilganidek, [2] O'zbekistonda, keyingi yillarda raqobatbardosh qurilish mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha barqaror o'sish suratlarini ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish

materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda qurilish sohasi, jumladan, qurilish materiallari sanoati korxonalarida tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarini takomillashtirish, soha korxonalarini tarkiban o'zgartirish va ularda ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlarini diversifikatsiya qilish, tarmoqda qo'shilgan qiymat zanjirining to'laqonli shakllantirish orqali soha korxonalarining iqtisodiy salohiyatini oshirish, shu orqali bandlikni ta'minlash, aholining qurilish mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda turmush farovonligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham qurilish mahsulotlari bozorini rivojlantirish bo'yicha «Qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko'paytirish va sanoat tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish dasturlarini keng joriy qilish»[3] bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Mazkur vazifalarni samarali ijrosini ta'minlashda qurilishda energiya tejankor materiallarini keng joriy etish orqali uy-joy qurilish vaqti va tannarxini pasaytirish, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchilarning xarajatlarini optimallashtirish, har bir hududda kamida bittadan qurilish materiallarini ishlab chiqarishdan qurilish obyektlarini loyihalashtirish va tayyor ko'p qavatli uy-joylar qurishgacha qo'shilgan qiymat zanjirini yaratuvchi uy-joy qurilishi klasterlarini tashkil etish asosida qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining tashkiliy iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, ular orasidagi integratsion aloqalarni rivojlantirish yuzasidan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda qurilish materiallari bozorlari narxlarni tartibga solish tegishli tovar bozorida ustun mavqega ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ma'lum darajada monopoliya yuqori yoki monopoliya past narxlarning o'rnatilishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi.

O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining sifati pastligi, seysmik, ekologik, yong'in xavfsizligi va boshqa standartlarga mos kelmaslik muammolari mavjud. Shuningdek, ichki bozorda sohta qurilish materiallarini sotish muammosi xam yo'q emas.

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi ko'pchilik korxonalar – bular asosan o'rta yoki kichik korxonalar bo'lib, buning oqibatida ularda ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning moliyalashtirilishi yoki yangi ishlab chiqarishni tashkil etish borasida muammolar mavjuddir. Muammolar o'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasining yetarlicha emasligi yoki kredit resurslari bilan ta'minlanganlik og'ir ahvoldaligi bilan tavsiflanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Qurilish materiallari bozorini o'rganishda uning xususiyatlarini aks ettiruvchi, uni o'rganish va tasniflash imkonini beruvchi turli ko'rsatkichlar muhim rol o'ynaydi. Bozor tarkibini tavsiflovchi alohida ajratilgan miqdoriy ko'rsatkichlar mavjud bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: qurilish materiallarining ushbu tovar bozorida faoliyat yurituvchi sotuvchilar soni; ushbu qurilish materiallari bozorida sotuvchilar egallagan ulushlar; bozor konsentratsiyasi ko'rsatkichlari; qurilish materiallari bozoridagi korxonalar tovar aylanmasi, mehnatda band bo'lganlar, kapital va foyda miqdori.

Qurilish materiallari bozori muammolarining metodologik-nazariy asoslari, jahondagi yetuk olimlar E.Chemberlin[4], J.Tirol[5], F.Sherer va D.Ross[6] lar va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ular asosan: qurilish materiallari sanoatini rivojlantirishga bog'liq nazariyalar; bozor iqtisodiyoti sharoitidagi muammolar; raqobatbardosh mahsulot va bozorlar; mintaqalarda qurilish materiallari bozorining o'ziga xosligini nazariy jihatlari; MDH

olimlaridan S.B. Andashev, A.Vurov, N.M. Rozanov, V.Tretyak, V.A.Jukov[7] lar tomonidan raqobatdosh bozorlar nazariyasi, sanoat korxonalarini ishlashiga taʼsir qiluvchi mintaqaviy omillar va qurilish materiallari bozorini boshqarish muammolari tadqiq etilgan; Oʻzbekistonlik olimlardan A.D.Sultonov[8] tomonidan qurilish materiallari ulgurji savdo bilan shugʻullanuvchi vositachi korxonalarining marketing faoliyati samaradorligini oshirish mexanizmlari tadqiq etilgan; D.Y.Matrizaeva[9] esa sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini boshqarishning ilmiy-amaliy asoslarini oʻrgangan.

Yurtimiz iqtisodiy islohotlar davrini boshdan kechirayotgani fonida qurilish sohasi va qurilish materiallari ishlab bozori rivojlanishiga xizmat qiluvchi barcha zaruriy chora-tadbirlar qoʻllanilmoqda. Zamonaviy qurilish yangi va samarali qurilish materiallarini tez oʻzlashtirishga yordam beradigan keng ilgʻor ilmiy va texnologik asos bilan ajralib turadi. Bu esa mehnat sharoitlarini sezilarli darajada osonlashtiradi va yaxshilaydi, uning xarajatlarini kamaytiradi va mahsulot tannarxini pasaytiradi. Assortiment qanchalik keng boʻlsa, qurilish materiallarining sifati va narxi qanchalik past boʻlsa, qurilish qanchalik muvaffaqiyatli boʻladi.

Yurtimiz olimlaridan E. Qosimovning fikriga koʻra “Qurilish ashyolari ishlab chiqarish sanoatining eng muhim vazifalari bu - mahalliy xom ashyolardan keng foydalanish, buyum ishlab chiqarishni rivojlantirish, ularning sifatini oshirish va qurilishning tannarxini kamaytirish, shuningdek, eskirib qolgan mashina-uskunalarini zamonaviy texnologiyalarga almashtirishdir”. [10]

Tadbirkorlarimiz asosiy qurilish materiallari – metall, gʻisht, sement, beton ishlab chiqarishni kengaytirish va sifatini oshirish muhim vazifalardan ekanligini isbotlab, qurilish materiallarini yanada koʻpaytirish uchun xarakat qilyaptilar.

«Qurilish materiallari bozori» tushunchasi Rossiyalik olim V.A.Jukov fikriga koʻra «...qurilish materiallari bozorini qurilish materiallari sanoati korxonalarini (qurilish xom ashyosi, mahsulotlari va tuzilmalari) yakuniy mahsulotlarining aylanish sohasi boʻlib, ular doirasida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarning uch turi shakllanadi: ishlab chiqarish subyektlari oʻrtasidagi raqobat munosabatlari; vositachilar va mijozlar oʻrtasidagi munosabatlar» dan shakllanadi.[11] Bundan tashqari I.S.Rafael tomonidan quyidagicha taʼrif berilgan: «Qurilish materiallari bozori - bu tovarlarni ishlab chiqarish va sotish uchun maxsus sharoitlar, ishtirokchilarning oʻziga xos manfaatlari, individual infratuzilma bilan tavsiflangan munosabatlar tizimi boʻlib, uning doirasida ishlab chiqaruvchilar, isteʼmolchilar, vositachilar, atrofdagi bozor muhiti vakillarining manfaatlari qurilish materiallari va mahsulotlarini sotib olish va sotish boʻyicha, barcha manfaatdor tomonlarning ehtiyojlarini qondirishni taʼminlaydigan shakllangan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlari muvofiqlashtiriladi». [12]

Mutaxassislar V.S.Rudnov, Ye.V.Vladimirova, I.K.Domanskaya, Ye.S. Gerasimovning fikriga koʻra, qurilish materiallari xar qanday qurilishining ajralmas va juda muhim tarkibiy qismidir. Agar siz uzoq oʻtmishga nazar tashlasangiz va qadimgi odam uchun qanday materiallardan uy qurish mumkinligini tasavvur qilishga xarakat qilsangiz, uning tanlovi juda oddiy ekanligi ayon boʻladi: toshlar, loy, yogʻoch, oʻldirilgan xayvonlarning terilari ekan. [13]

Qurilish materiallarining turlari xaqida aytadigan boʻlsak, misol uchun pardozlash va montaj ishlarini bajarishda quruq qurilish aralashmalaridan foydalanish mehnat sifati va unumdorligini sezilarli darajada yaxshilaydi, tayyor mahsulotning yuqori ishlash xususiyatlarini taʼminlaydi. [14]

V.P. Nikolayevning ta’kidlashicha, qurilishdagi haqiqiy jarayonlar barcha bosqichlarda - qurilishni tugatishdan oldin, davomida va keyin kapitalning almashtiriladigan egalari o’rtasidagi raqobatdir. [15] Qurilish bozori esa ochiq tashkiliy-iqtisodiy tizim xisoblanadi. [16]

Ilg’or xorijiy davlat olimlari yaratayotgan yangi zamonaviy qurilish ashyolari, xom ashyolarini innovatsion texnologiyalar asosida qiyta ishlab, jumladan maydalab, tuyib, kuydirib, qorishtirib, qoliplab, zichlab ularning yangi noyob turlarini qo’llamoqdalar. [17]

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, qurilish sanoati yirik odimlar bilan rivojlana boshladi. Mahsulotning sifati yaxshilandi, uning turdari ko’paydi va yangi texnologik usullar ishga tushirildi, to’la mexanizatsiyalashtirilgan va avtomatlashtirilgan texnologik tizimlar joriy etildi va ishga tushirildi. “Iqtisodiy islohotlar o’tkazilayotgan bozor sharoitida xo’jalik yuritish, qurilish ashyolarini ishlab chiqarish negizini tubdan isloh qilishni va qurilish tizimida xom ashyolar ta’minotini birgalikda qayta tashkil qilishni talab qiladi. Mamlakatimizda mavjud bo’lgan kapital qurilishni rivojlantirish qurilish ashyolarini ishlab chiqarish majmuini qaytadan o’rganib boshqarish, tashkil etish va mablag’ bilan ta’minlash asoslariga o’zgartirishlar kiritishni taqozo etadi”. [18]

Qurilishda aniqlash va optimallashtirish oson bo’lmagan ko’plab nozik masalalar mavjud - bu pudratchilar bilan ishlash va bozorning rivojlanishiga deyarli ta’sir qilmaydigan, lekin uning faol ishtirokchisi bo’lgan ko’plab tijorat vositachilari va bevosita buyurtmalar va individual qurilish va boshqa ko’plab omillarni oson baholash mumkin emas. Qurilish o’zining barcha “bo’limlarida” har qanday davlat iqtisodiyotining holati va rivojlanish darajasini bevosita aks ettiradi. Ushbu sohasi madaniyat va millatning iqtisodiy o’sishga intilishini tavsiflaydi.

Ilmiy jihatdan ko’radigan bo’lsak, biz uchun bozor sohasidagi vakolatli shaxslar: Teodor Levitt, “Global bozorlarning tashkil etilishi” (1983) kitobi bilan tanilgan, 1990 yilda rus tiliga tarjima qilingan. Filipp Kotlarning “Marketing asoslari” kitobi marketologlarning o’ziga xos “mayoq”iga aylandi, Igor Anyooff xorijiy marketologlar tomonidan tez-tez tilga olinadigan “Korporativ strategiya” muallifi, Maykl Porter raqobatchi kuchlarni tahlil qilish bo’yicha mutaxassis bo’lib, uning “Xalqaro raqobat” asari 1993-yilda tarjima qilinganidan keyin boshqa ko’plab mahalliy iqtisodchilarga taqdim etilgan. Marketingning o’ziga xosligi misoli sifatida, marketingning umumiy nazariyasini o’rganish yetarli bo’lishi mumkin, ammo qurilish marketingi nuqtai –nazaridan sanoat fani sifatida xaddan tashqari umumlashtirish va xaddan tashqari abstraksiyadan aziyat chekish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada qurilish materiallari bozorini tartibga solishda davlat boshqaruvining ahamiyatini qiyosiy solishtirish, statistik ma’lumotlarni o’rganish va iqtisodiy jihatdan taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Qurilish sohasiga mamlakat yalpi ichki mahsulotida alohida yuqori ulushga ega bo’lgan sektor sifatida qaraladi. Bu tarmoqning rivojlanishi yangi turdagi obyektlarni barpo etish va mavjudlarini qayta ta’minlash, rekonstruksiya qilish, shuningdek mavjud standartlar asosida ularni monitoring va sifat nazoratidan o’tkazish kabi muhim iqtisodiy-tashkiliy vazifalarni ham o’z ichiga oladi. Qurilish sektorining asosiy funksiyasidan bir bu davlatning iqtisodiy landshaftini boyitishga oid chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va unga amal qilish jarayonida qulay muhitni ta’minlab berishdan iborat.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni samarali tashkil etish bo'yicha quyidagi tadbirlarni olib borish taklif etiladi:

-korxonadagi bo'limlar faoliyatini o'zaro muvofiqlashtirishda bir- biriga bog'lik tizimlar shaklida shakllantirish va o'zaro xarakatni ta'minlovchi mexanizmni tashkil etish zarur;

-mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etuvchi xalqaro sifat menejmentini joriy etish lozim;

-korxonalarda muntazam SWOT, PEST kabi tahlil usullaridan foydalangan holda tahdidlar, risklarni tadqiq etish zarur;

-axborot oqimini samarali tashkil etishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish kerak;

-investorlar bilan samarali bitimlar tuzish, investisiya kiritish hamda innovasion faoliyatni rivojlantirish lozim;

- xodimlar mehnat salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi malaka oshirish, stajirovkaga yuborish tadbirlarini takomillashtirish zarur;

-qurilish materiallari assortimentlari ustida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish orqali diversifikasiyalashuv jarayoniga erishish lozim;

-korxonalar doimiy ravishda boshqaruv samaradorligini aniqlashi, yo'l qo'yilayotgan kamchilik va muammolar bo'yicha operativ qarorlar qabul qilishi zarur.

Qurilish landshafti tarkibiga kiruvchi bo'laklar quyidagilardan iborat: qurilish faoliyati amalga oshadigan platforma (turar-joy ob'ektlari, tijorat ko'chmas mulklari va sanoat ob'ektlarini o'z ichiga oladi); qurilish materiallari bozori; qayta ta'mirlash va rekonstruksiya qilish xizmatlari amalga oshiriladigan bozor.

Qurilish materiallari va tovarlari qurilish bozori evolyutsiyasiga va uning rivojlanishining kinetikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ta'mirlash va qurilish xizmatlari sohasi qurilish materiallari sohasiga yaqin joylashgan. Ushbu sektorning barqaror kengayishini ta'minlash uchun har tomonlama bozor tadqiqotlari bilan shug'ullanish, talab dinamikasini aniqlash, rekvizitlarni baholash, imkoniyatlarni o'rganish va bozordagi turli manfaatdor tomonlarni aniqlash zarur.

Maqsadiga ko'ra zamonaviy qurilish materiallari quyidagilarga bo'linadi:

1-jadval

Qurilish materiallarining turlari

Konstruksion	tabiiy tosh materiallari; sun'iy tosh materiallari (beton, oxak, keramik, shisha); metallar (po'lat, quyma temir, alyuminiy va qotishmalar); plastmassa; yog'och materiallari; kompozit materiallari.
Mahsus yo'naltirilgan	birikuvchi moddalar; issiqlik izolyatsiyasi; akustik; gidroizolyatsiya; pol va yo'l uchun materiallar; yong'inga chidamli; radiatsiyadan ximoya qilish uchun

Bugungi kunda qurilish tarmog'ining iqtisodiy rivojlanishi tez sur'atlarda amalga oshayotganligi ushbu sohaning mamlakat iqtisodiyotida jumladan, yalpi ichki mahsulotdagi o'zni ortib borayotganligi bilan izohlanadi. Biz tomondan mazkur tarmoqdagi iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishda vertikal tahlil usulidan foydalanilgan. Quyida keltirilgan 2-jadval ma'lumotlaridan shuni aytish mumkinki, o'rganilayotgan 2013-2022 yillarda qurilish tarmog'ining o'sishi jadal sur'atlar bilan amalga oshgan va manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,28 ga teng bo'lganligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasini rivojlantirishda norasmiy sektorning ulushini pasaytirish hamda ular faoliyatini legallashtirish maqsadida o'ziga xos dasturlarni ishlab chiqish, kichik biznes imtiyoz va preferensiyalarni joriy qilish, yirik va kichik biznes hamkorligini qo'llab quvvatlash, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish, qurilish tashkilotlarini tenderlarda qatnashish jarayonlarini yanada takomillashtirish qurilish ishlarini va qurilishini amalga oshirishda soha rivojlanishiga xizmat qiladi.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari


	2013	2015	2017	2019	2020	2022	O'zgarish nisbati
YAIM (mlrd. so'm)	153311,3	221350,9	317476,4	529391,4	602193	896617,9	1,22
Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	15219,3	25423,1	34698	71156,5	88130,3	130790,9	1,28
Qurilish tarmog'ida ish bilan bandlar soni (ming kishi)	1144	1222,2	1290	1324,6	1305,6	1314,3	1,02
Aholining umumiy daromadlari (mlrd. so'm)	126268	169344,3	236893,1	365735,6	420338,3	634797,0	1,20
Qurilish oynasi (ming kv.m)	7139,3	7232,4	7348,0	16853,9	17983,7	20702,3	1,12
Sement (ming tonna)	7991,3	8313,4	9132,2	10763,8	11239,7	11078,2	1,04
Qurilish g'ishtlari (million dona)	1268,9	1307,3	1379,0	1267,2	12376,3	13567,3	1,89
Keramika plitalari (ming tonna)	268,5	279,4	245,6	9596,1	10023,8	11996,4	2,09
Quruq qurilish aralashmalari (ming tonna)	106,6	152,0	245,1	846,7	1000,8	1218,6	1,37

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda qurilish tarmog'ining tez sur'atlar bilan ortib borishi va barcha boshqa yirik tarmoqlardanda tez rivojlanish va manfaatdorlik ko'rsatkichiga ega hisoblanmoqda. Keltirilgan davrda qurilish tarmog'ida ish bilan band bo'lganlar sonining ortib borishi manfaatdorlik o'rtacha koeffitsiyenti 1,02 ga teng bo'lganligini, aholining umumiy daromadlari miqdori manfaatdorligi o'rtacha koeffitsiyenti 1,2 ga teng bo'lganligi

ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari mamlakatda qurilish materiallari ishlab chiqarish dinamikasi bo'yicha asosiy qurilish materiallaridan qurilish oynasi ishlab chiqarish o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,12 ga, sement ishlab chiqarish o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,04 ga, qurilish g'ishtlari ishlab chiqarish o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,89 ga, keramika plitalari ishlab chiqarish o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 2,09 ga va quruq qurilish aralashmalari ishlab chiqarish o'rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,37 ga teng bo'lganligi ko'rish mumkin.

Qurilish materiallarigi bo'lgan talabni hech bir hudud o'z ichki materiallari hisobidan qondira olmaydi. Chunki qurilish materiallari ishlab chiqarishni joylashtirish uchun lozim bo'ladigan talablar barcha hududlarda birdek uchramaydi. Mamlakatimizda 2022 yilda O'zbekistonda qurilish materiallariga bo'lgan ichki talabni mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ta'minlanish darajasi berilgan.



1-rasm. O'zbekistonda qurilish materiallariga bo'lgan ichki talabni mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ta'minlanish darajasi (2022 yilda)

Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari

Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish zarurligi doirasida ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va tartibga solish masalasi dolzarbligi hamda ushbu masalani o'rganish borasida qator tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan, ta'sir etuvchi omillar belgi va xususiyatlari bo'yicha chegaralanmagan va aniq tasnif holatida ishlab chiqilmagan. Aytib o'tish joizki, qurilish materiallari sanoati milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalardan farqlanuvchi o'ziga xos jihatlarga ega. Qurilish materiallari sanoatida amalga oshirilayotgan barcha faoliyat va yaratilayotgan xizmatlarga qo'shilayotgan yangi sifatlar iste'molchilarning yangi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida shakllanayotgan o'ziga xos ehtiyojlarini to'liq qondirishga qaratilgan. Shuning uchun qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi, raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatuvchi har bir omilni alohida va muayyan yo'nalishlar asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Qurilish korxonalarida asosiy e'tibor mahsulot sifatini nazorat qilishga qaratilishi kerak, bu esa qurilish natijalarining kalibrini ta'minlash uchun laboratoriyalarda kimyoviy tahlillar, tajribalar va shunga o'xshash tadqiqotlar o'tkazishni talab qiladi. Ushbu tadqiqot ishlari va tahliliy jarayonlar tovar ishlab chiqarish xarajatlariga muqarrar ta'sir ko'rsatadi, natijada qurilish ob'ektlarini bozorda tijoratlashtirishni tezlashtiradi va shu bilan birga mahalliy

qurilishdan kelib chiqadigan shubhali sifatdagi qurilish materiallarini sotishdan himoya qiladi. sektor.

O‘zbekistonda qurilish materiallari bozorini rivojlantirish va muammolarini bartaraf etish uchun menejmentni takomillashtirish, iste‘molchilar talabidan kelib chiqqan holda innovatsiyalardan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish qurilish sohasida faoliyat yurituvchi korxonalarining birlamchi maqsadi bo‘lishi zarur.

So‘nggi yillarda qurilish materiallarini ishlab chiqarish sohasida kuzatilayotgan ijobiy tendensiyalar tadqiq qilinayotgan mintaqada quyidagilardan iboratdir: qurilish materiallarini ishlab chiqarish tarmog‘i mahsulotlariga talabning sezilarli ravishda o‘sib borishi va bu trendning saqlanib qolishi uchun shart-sharoitlar mavjud; qurilish materiallarini ishlab chiqarish tarmog‘ida mahsulot ishlab chiqarishning yuqori sur‘atlari kuzatiladi; qurilish materiallarini ishlab chiqarish tarmog‘ida band bo‘lganlar sonining ortishi ro‘y bermoqda.

Bu davrda foydaning o‘shishi va rentabellikning ortishiga erishildi. Bir vaqtning o‘zida ta‘kidlab o‘tish lozimki, uzoq muddatli istiqbollarda qurilish materiallarini ishlab chiqarish tarmog‘ini rivojlantirishning jozibadorligi saqlanib qoladi va bu quyidagi imkoniyatlar bilan shartlanadi: qabul qilingan urbanizatsiya bo‘yicha davlat Strategiyasi bilan bog‘liq holda qurilish materiallari mahsulotlariga talabning oshish istiqbollari; ishlab chiqarish infratuzilmasi va sanoat qurilishining rivojlanishi, shu jumladan, uy-joy, ijtimoiy va infratuzilma qurilishi hajmlarining ortishi; ko‘plab turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish uchun keng, foydalanilib kelinayotgan va salohiyatli xom-ashyo bazasi mavjudligi; og‘ir vaznli mahsulotlarni narxda transport ulushining yuqoriligi sababli uzoq masofalarga tashishning iqtisodiy samarasizligi ortidan asosan mahalliy mahsulotlarni ishlab chiqarish hisobiga qurilishi materiallari bozorini shakllantirishning o‘ziga xosliklari; tarmoq rivojlanishining mavjud yuqori salohiyati va bozorning sezilarli qismini egallab turgan import mahsulotlar (qora metall, yog‘och, pardozlash materiallari, santexnika qurilmalari)ni mahalliy bozordan siqib chiqarish imkoniyati; bir qator investitsion, soliq preferensiyalari, davlat innovatsion grantlarini taqdim etish, bojxona bojaridan ozod qilish bilan mazkur tarmoqni rivojlantirishning ma‘lum bir darajadagi ustuvorligi; ishlab chiqarish hajmlari o‘shishi sharoitlarida tarmoqning yetarlicha yuqori samaradorligi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5577-sonli farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4060063>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4335 Qarori// <https://lex.uz/docs/-4351738>

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси” ПФ-60-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>

4. Чемберлин Э. Теория монополистической конкуренции / Э. Чемберлин. - М.: Экономика, 1996. - 351 с.;

5. Тироль Ж. Рынки и рыночная власть: теория организации промышленности: в2-х-т, /пер. англ.под ред. В.М.Гальперина и Н.А.Зенкевича. Спб: Экономическая школа, 2000г.

6. Шерер Ф. Д. Росс. Структура отраслевых рынков: Пер с англ. / Ф. Шерер, Д. Росс. - М.: ИНФРА-М, 1997. - 698 с.;

7. Андашев С.Б. Теория организации отраслевых рынков: Учеб/ Андашев С.Б, Н.М. Розанова- М: ИЧП. “Издательство Магистр” 1998г.; Вурос Л. Экономика отраслевых рынков / Л. Вурос, Н. Розанова. - М.: МГУ, 2000. -312 с.; Розанова Н.М. Квазиконкурентные рынки-реальность российской экономики/ Н.М.Розанов, С.Б. Андашев// Вести. МГУ, Сер.6. Экономика. - 1998 г. Третьяк В. Анализ отраслевой организации рынков: Курс Лекций// РЭЖ -2001 г.; В.А.Жуков. Методы управления результативностью рынка строительных материалов на уровне региона. Дисс.кан.эко.наук. Волгоград-2005 г

8. А.Дж.Султанов. “Механизм повышения эффективности маркетинговой деятельности коммерческо- посредческих организаций в условиях либерализации экономики” диссертация на учёной степени доктора экономических наук. Тошкент 2008 г.

9. D.Y.Matrizaeva “Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradoligini boshqarishning ilmiy-amaliy asoslari” PhD Ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya Toshkent-2020 Y.

10. Qosimov E., Qurilish ashyolari: Oliy o‘quv yurtlarining talabalari uchun darslik. - T.: “Mehnat”, 2004, -3 b.

11. В.А.Жуков. Методы управления результативностью рынка строительных материалов на уровне региона. Дисс.кан.эко.наук. Волгоград-2005 г.

12. И.С.Рафаэль “Управление ассортиментным предложением предприятия на основе маркетингового подхода” Автореферат кан.экон.наук Оренбург-2010 10-с

13. Строительные материалы и изделия: учеб. пособие / В.С. Руднов [и др.]; под общ. ред. доц., канд. техн. наук И.К. Доманской- Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2018. с – 3.

14. Горошкова А.В. Сухие строительные сме с модифицирующей добавкой на основе торфа. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата технических наук. ФГБОУ ВО “ТГАСУ” Томск – 2015. С 3

15. Николайев В.П. Введение в рыночную экономику строительства // Экономика строительства. – 1994. – № 4. – С.3-12..

16. Й.П.Кияткина, С.В.Федорова “Экономика строительства” Учебное пособие. Самара: Самарский государственный архитектурно-строительный университет, 2011. С -71.

17. Qosimov I. Arzon zamonaviy qurilish ashyolari. Darslik. Toshkent arxitektura qurilish instituti. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU., 2017. 7 – b.

18. Qosimov E., Qurilish ashyolari: Oliy o‘quv yurtlarining talabalari uchun darslik. — T.: “Mehnat”, 2004, -4 b.

19. Saidov M.S., Hasanov A.A. Institutional Characteristics of the Regulation of Natural Monopoly Fields // International Journal of Business Diplomacy and Economy. Volume 2 | No 3 | March-2023. <https://inter-publishing.com/index.php/ijbde/article/view/1333/1141>

20. Saidov M.S. Challenges and solutions of formation of competitive environment in regulation of natural monopolies // International Journal of Advanced Research in IT and Engineering. Vol. 10 | No. 11 | Nov 2021. <https://garph.co.uk/IJARIE/Nov2021/G-6.pdf>

21. Saidov M.S. Renewable Energy Sources and Ways of their Implementation in the Republic of Uzbekistan // INTERNATIONAL JOURNAL ON ECONOMICS, FINANCE AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT. Vol. 5 No. 1 | January 2023. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJEFSD/article/view/3879/3668>

22. Saidov M.S. WAYS TO ENSURE ENERGY SECURITY IN UZBEKISTAN // Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 21 Feb 2022. <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/1062/977>